

G‘ARBIY TURK XOQONLIGI.**Abdulxay Gulchehra****Abdumatov Alisher****Ma’rufov Sherzod***GulDU “Tarix” kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *G‘arbiy Turk Xoqonligi VI asrning ikkinchi yarmida tashkil topib, Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda muhim siyosiy va madaniy rol o‘ynagan turkiy davlatlardan biridir. Bu xoqonlik ilk o‘rta asrlarda Ipak yo‘li orqali olib borilgan savdo, diplomatik aloqalar va ko‘chmanchi qabilalarning siyosiy uyg‘onishida muhim vositachilik qilgan. Xoqonlikning siyosiy tuzilmasi, harbiy kuchi, tashqi siyosati va mahalliy xalqlar bilan munosabatlari ushbu davr tarixini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega. Mazkur mavzu doirasida G‘arbiy Turk Xoqonligining tashkil topishi, hududiy kengayishi, ichki nizolar va uni zaiflashtirgan omillar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *G‘arbiy Turk Xoqonligi, ko‘chmanchilar, Ipak yo‘li, siyosiy tuzilma, turkiy qabilalar, Tardu, Siyosiy markazlar, Eron-Sug‘d aloqalari, diplomatiya, harbiy yurishlar.*

Annotation: *The Western Turkic Khaganate, established in the second half of the 6th century, was one of the prominent Turkic states that played a significant political and cultural role in Central Asia and adjacent regions. It served as a key intermediary in Silk Road trade, diplomatic relations, and the political mobilization of nomadic tribes during the early medieval period. This topic explores the formation, territorial expansion, internal dynamics, and eventual decline of the Western Turkic Khaganate, as well as its relations with local populations and neighboring powers. The khaganate's political structure, military strength, and role in interregional interactions are central to understanding this historical era.*

Keywords: *Western Turkic Khaganate, nomads, Silk Road, political structure, Turkic tribes, Tardu, political centers, Sogdiana-Iran relations, diplomacy, military campaigns.*

Turk xoqonlari o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar 20 yildan ziyodrok, davom etib 603 yilda davlatning 2 ta: G‘arbiy va Sharqiy kismilariga bo‘linib ketishi bilan yakunlandi. Sharqiy Turk hoqonligi Mo‘g‘uliston hududlarini, G‘arbiy Turk hoqonligi esa, Ettisuv, Chu vodiysi, Volga, Kubanning quyi qismi, Irtish, Ishim daryosi bo‘yidagi erlar, O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning bir kismini o‘z ichiga olgan. Hoqonlar Sheguy va To‘n yabg‘u davrlarida

G‘arbiy Turk xoqonligi vaqtinchalik rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirdi. Bu davrda hoqonlikning hududlari kengaydi, davlat boyidi va harbiy qabila zodagonlarining mavqei kuchayib ular hoqonlar hokimiyatidagi harbiy muvaffaqiyatlarni ta‘minlab turdilar. Shaguy G‘arbiy hoqonlikning sharqiy chegaralarini Oltoy qilib belgiladi va o‘z hokimiyatini Tarim havzasi va sharqiy Pomir oldigacha cho‘zishga muvaffaq bo‘ldi. To‘n yabg‘u (To‘n Baxodir) hoqonlikning g‘arbiy hududlarida faol siyosat olib borib xoqonlikning kishki qarorgohini Chu daryosi vohasidagi yirik savdo hunarmandchilik markazi bo‘lgan Suyobga (hozirga To‘qmoq yaqinidagi Oqbeshim ko‘hna shahri), yozgi qarorgohini esa Isfijob yaqinidagi Mingbuloqqa, hozirgi Turkiston shahri yaqinida) ko‘chiradi. To‘n yabg‘uning yangi yurishlari tufayli hoqonlik chegarasi Amudaryoning yukori okimlaridan Hindiqushgacha cho‘ziladi.

To‘n yabg‘u hukmronligi davrida amalda mustaqil bo‘lgan O‘rta Osiyo davlatlari ustidan nisbatan qattiq siyosiy nazorat o‘rnatiladi. Chunki bu davlatlarning vassalligi faqat o‘lpon to‘lash bilan chegaralanar edi. Isfijobdan Toshkent vohasigacha, shimolda Janubiy Afg‘oniston va shimoli-g‘arbiy Pokistongacha bo‘lgan hududlarga hoqon To‘n yabg‘uning ishonchli vakillari - tudunlar yuborilib, ular soliqlar yig‘ish va hoqon qarorgohiga yuboriladigan o‘lponlarni qattiq nazoratga oldilar. Mahalliy hokimlarga ularni hoqonlik ma‘muriy boshqaruviga qo‘shilganlik ramzi sifatida turk unvonlari berildi. Shu bilan birgalikda To‘n yabg‘u nisbatan kuchli bo‘lgan mahalliy hukmdorlar bilan shaxsiy munosabatlarini mustahkamlashga harakat qildi. Manbalarda To‘n yabguning Samarqand hokimiga o‘z qizini xotinlikka berganligi xaqida ma‘lumot bor. Xitoy manbasi To‘n yabg‘u haqida ma‘lumot berar ekan shunday xabar beradi: ‘G‘arb varvarlari hali hech qachon bunchalik qudratli bo‘lgan emas’.

O‘ta yakkaxokimlik xususiyatiga ega bo‘lgan To‘n yabg‘u boshqaruvi - talon- tarojchilik urushlari natijasida boyib ketgan qabila zodagonlari orasida norozilik harakatlarini kuchaytirib yubordi. Boshlanib ketgan o‘zaro kurashlarni bartaraf etishga harakat qilgan To‘n yabg‘uning tog‘asi Qo‘l Baxodir jiyanini o‘ldirib o‘zini Qo‘l Elbilga hoqon deb e‘lon qiladi. Ammo, qabila boshliqlarining ayrimlari boshqa da‘vogarni qo‘llab-quvvatlaganlari tufayli yana qabilalararo kurashlar boshlanib ketadi. 630-634 yillarga kelib hoqonlik o‘zining Sirdaryoning g‘arbidagi O‘rta Osiyo mulklaridan mahrum bo‘ldi. G‘arbiy turk hoqonligining asosi bo‘lgan dulu va nushibi qabilalari o‘rtasida o‘zaro kurashlar avj olib ketdi.

634 yilda nushibi qabilasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Ishbara Elterish Sher hoqon xokimiyat tepasiga keldi. U harbiy ma‘muriy tartib bo‘lgan "o‘n o‘q eli" boshqaruvini qayta tiklashga harakat qilib, qabila boshliqlarini o‘ziga shaxsan tobe qilish maqsadida islohotlar o‘tkazdi. Undan tashqari, amaldagi nazoratni amalga oshirish maqsadida Ishbara

har bir mulkka xoqon urug‘i a‘zosi - **shodni** jo‘natadi. Shodlar qabila zodagonlari bilan hech qanday aloqada bo‘lmay, ularning markaziy hokimiyatga intilishini ko‘zatib borgan. Bu mahalliy hokimlarning siyosiy tashabbuslarini nihoyatda chegaralab qo‘yar edi. Ammo, Ishbara Elterish Sher boshchiligidagi hoqonlik hokimiyatining harbiy-siyosiy layokati qaram mulklar va qabilalarni ushlab turishga kadir emas edi. 638 yilda dulu qabilasi o‘zlariga jo‘natilgan shodni hoqon deb e‘lon qildilar. Shundan so‘ng dulu va nushibi qabilalari o‘rtasida og‘ir va qonli urushlar bo‘lib o‘tib g‘arbiy hoqonlik ikki qismga bo‘linib ketdi. Shunday bo‘lsada, hoqonlikdagi qabilalararo va sulolalararo urushlar 17 yil (640-657 yy.) davom etdi.

Shunday qilib, VII asrning o‘rtalarida G‘arbiy turk hoqonligi zaiflashib bir necha qismlarga bo‘linib ketdi. Vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi qo‘shinlari 657-659 yillarda Ettisuvga bostirib kirdilar. Xitoy bosqinchilariga qarshi kurashlar uzoq yillar davom etdi. Faqatgina VII asrning oxirlariga kelib hoqonlik o‘z mustaqilligini tiklashga muvaffaq bo‘ldi va xitoyliklar vakili Xusrav Bo‘rishod mamlakatdan xaydab yuborildi.

3. Davlat boshqaruvi. Turk hoqonligida davlatning oliy hukmdori "**hoqon**" unvoniga ega bo‘lgan. Xitoy manbalari ma‘lumotlariga ko‘ra, turkiylar xonni taxtga o‘tqazishda maxsus marosim o‘tkazishgan. Ya‘ni, amaldorlar bo‘lajak xonni kigizga o‘tqazib, quyosh yurishi buylab 9 marotaba aylantirganlar, ishtirokchilar esa uni qutlab va ulug‘lab turganlar. So‘ngra xonni otga o‘tqazib, bo‘yniga ipak mato bog‘laganlar va undan "Siz necha yil xon bo‘lmoqchisiz?" deb so‘raganlar. U necha yil xon bo‘lishini aytgan va shu muddat tugagach taxtdan ketgan.

Qadimgi turkiy afsonalarda berilishicha, turklarning tasavvuriga ko‘ra, davlatchilikning markazi, davlatni o‘z qo‘lida birlashtiruvchi shaxs hoqon hisoblangan. Boshqaruvda hoqonlarning hukmron sulolasi asosiy bo‘lib u uchta kuch - osmon (tangri), er-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyati tufayli yuzaga keltiriladi.

Hoqondan keyingi shaxs, birinchi amaldor "**Yabg‘u**" (**Bahodir**) bo‘lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo, yabg‘u taxtga merosxo‘rlik qila olmas edi. Turk xoqonligi taxtiga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo‘lgan uluslarga bo‘linish tizimiga asoslanib belgilanar edi. Ushbu tizimga ko‘ra taxt aksariyat hollarda otadan o‘g‘ilga emas, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi. Taxt merosxo‘ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan. Shahzodalar to taxtga o‘tirgunlariga qadar o‘zlariga berilgan uluslarni boshqarib turganlar. O‘rta Osiyodagi mahalliy hokimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi amaldor, hoqonning nazoratchisi - "**tudun**" deb atalgan. Turk hoqonligi konfederativ davlat bo‘lgan. Turkiylar o‘z yurti va davlatini "**el**" deb atashgan. Birinchi turk hoqoni Buminxon **elxon** unvoniga ega bo‘lganligi bejiz emas.

Xoqonlik tarkibidagi ko'plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarib turish, ulardan ma'lum miqdordagi soliqlar va o'lponlarni o'z vaqtida yig'ib olish maqsadida hoqonlikda maxsus ma'muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan edi. Davlatni boshqarishda oliy hukmdorga uning yaqin qarindoshlari, avvalo, hukmron sulola a'zolari hamda ular tomonidan barpo etilgan boshqaruv tizimi yordam berar edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, u to'rtga bo'lingan. Ya'ni, qarindoshlar, hoqonga ittifoqdosh bo'lgan qabila va xalklar; hoqonning o'ng tomonida o'tiruvchi amaldorlar va ma'muriy xodimlar; hoqonning chap tomonida o'tiruvchi amaldorlar va xodimlardan iborat bo'lgan. Hoqonning qarindoshlari - o'g'illari, amakisi, jiyanlari va aka-ukalariga "**tegin**" unvoni berilgan. Xitoy manbalarida ma'lumot berilishicha, hoqonlikda beshta oliy mansab - **exu (yabg'u), she (shod), dele (tegin), silifa (eltabar) va tutunfa (tudun)** qabilar mavjud bo'lib, ularning barchasi meros qilib qoldirilgan.

Turk hoqonligi davlatining asosini er bilan birga xalq tashkil etar edi. O'z davrida O'rta Osiyoda davlatchilikning mustaqil va an'anaviy shakllarini rivojlantirgan turkiylar davlati mavjud jamiyatning muayyan ijtimoiy tuzilmalariga va qadimgi turklarning davlat tomonidan tashkil etilgan hamda nazorat qilinadigan xo'jalik faoliyatiga tayanar edi. Tarixiy adabiyotlarda berilishicha, bu faoliyatning asosini ko'chmanchi chorvachilik tashkil etgan. Chorvador turklarda urug'-qabilachilik an'analari nihoyatda kuchli bo'lib, qabila va urug jamoalarining asosi katta oilalardan iborat bo'lgan. Ko'chmanchi chorvadorlar xalq ommasini turklar "**budun**" yoki "**kora budun**" deb atashgan.

Hoqonlikda keng miqyosda dehqonchilik ham qilinardi. Xitoy manbalari, "garchi turklar doimiy yashash joylariga ega bo'lmasa ham, lekin ularning har birining ajratib berilgan eri bor"ligi haqida ma'lumot beradi. Aynan mana shunday "ajratib berilgan er"larda dehqonlar mavjud suv manbalari hamda lalmikor erlar imkoniyatdan foydalanib asosan donli ekinlar etishtirganlar. Mevali daraxtlardan bog'-rog'lar etishtirishga alohida ahamiyat berganlar. Manba tili bilan aytganda, "(mevali) daraxtlar savlat to'kib turgan".

Turklardagi qabila va urug jamoalarining katta oilalarida uy qo'llari ham mavjud bo'lar edi. Qo'llarning ko'payishi bilan sinfiy munosabatlar tarkib topa boshlagan. Lekin qo'lchilik ijtimoiy hayotga keng kirib kelmagan. Shu bois bo'lsa kerakki, manbalar hoqonlikda qo'llar mexnatidan keng foydalanish haqida amalda hech kanday ma'lumot bermaydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ko'proq ayollar mexnatidan foydalanilgan va qo'llar asosan uy ishlari bilan shug'ullanishgan. Ko'pincha jamoada ayollar qo'l qilib olib ketilar edi. Lekin, qo'l ayollardan ham og'ir ishlarda foydalanilmay, balki uy-ro'zgor ishlarida ishlatilinar edi. Qo'l erkakmi, ayolmi baribir kochib ketavergan. Qochgan qo'l ta'qib qilinmagan va uning uchun hech kim tovon to'lamagan. Turk hoqonligining markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy davlat tadbirlari (davlat osoyishtaligini saqlash, davlat

sarhadlarini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va bosh.) bilan mashg‘ul bo‘lib o‘zlari zabt etgan hududlardagi boshqaruv tizimiga ma‘lum darajada erkinlik berilgan. Shuning uchun ham Farg‘ona, So‘g‘d, Shosh, Toxariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qo‘lida bo‘lgan. Misol uchun, So‘g‘d va Farg‘onada oliy hukmdor - "**ixshid**" Toxaristonda - "**malikshoh**", Xorazmda - "**xorazmshoh**", Keshda – "**ixrid**", Buxoroda - "**xudot**", Ustrushonada - "**afshin**", Choch va Ilokda – "**budun**" deb atalgan.

Turk xoqonligi davrida So‘g‘d hududlariga hozirgi Panjikentdan Karmanagacha bo‘lgan erlar kirgan. Buxoro esa, VII asrdan boshlab mustaqil mulklar ittifoqidan iborat bo‘lgan. So‘g‘dning mahalliy hokimlari ayrim vaqtlarda Choch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari birlashar edilar. Bunday yirik siyosiy birlashmalar ma‘lum muddatlarda yirik shaharlarda o‘z qurultoylarini o‘tkazib turganlar.

Farg‘ona So‘g‘d siyosiy ittifoq,iga kirmagan bo‘lib, u alohida mustaqil davlat edi. Uni afshin boshqargan bo‘lib, Farg‘onaliklar Tyanshan xalqlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lganlar. Xorazm boshqa mulklarga nisbatan ancha mustaqil edi. Mamlakatni Afrig‘iylar sulolasiga mansub podsholar boshqarib turgan.

Ta‘kidlash lozimki, Turk xoqonligi ma‘lum darajada to‘liq ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka ega bo‘lgan. Sodir etilgan jinoyat uchun jazoning asosiy turlari – qatl etish odam a‘zolarini kesib tashlash, zararni to‘lash, mol-mulk tarzida tovon to‘lashdan iborat edi. Misol uchun, manbalarning ma‘lumot berishicha, o‘lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar uchun (isyon ko‘tarish, sotqinlik) hamda nohak yoki qasddan odam o‘ldirganlik uchun berilgan. O‘g‘irlik qilgan yoki bo‘zuqlik qilgan shaxsning qo‘li yoki oyog‘i kesilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar etkazilgan zararni o‘n barobar qilib to‘lash, jarohat etkazgani yoxud mayib qilgani uchun mol-mulk tarzida tovon to‘lash, qizi, xotinini qo‘llikka berish, suyagini sindirganlik uchun esa ot berish yo‘li bilan jazolanardi.

4. Madaniy hayot. Hunarmandchilik va savdo-sotiq. O‘z davrida Turk hoqonligidagi madaniy jarayonlar Buyuk ipak yo‘lidagi keng ko‘lamdagi, xalqaro aloqalar tufayli jamiyatdagi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy voqealar bilan o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanib bordi. O‘troq dehqonchilik vohalari aholisi va dasht qabilalari o‘rtasidagi madaniy aloqalar ayniqsa kuchaydi. Bu davrdagi madaniy hayot moddiy madaniyat buyumlari, me‘morchilik va san‘at, din va yozuv qabilarda o‘z ifodasini topdi.

Ta‘kidlash joizki, O‘rta Osiyoning turk hoqonligi tarkibiga kirgan davridagi moddiy madaniyati o‘zida mahalliy o‘troq xalqlar va ko‘chmanchi turklarning mushtarakligini aks ettiradi. Ularning umumiyliqi qurol-aslaha, zeb-ziynat buyumlarining o‘xshashligida, qimmatbaho metallardan ishlangan buyumlar ko‘rinishida o‘z aksini topgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, moddiy madaniyatdagi umumiylik, avvalo, O‘rta Osiyo shahar va qishloqlari hamda turk hoqonlari manfaatlarining umumiyligi bilan bog‘liq edi.

Turk hoqonligi davrida O‘rta Osiyo xalqlari zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik, shomonlik kabi dinlarga e‘tikrd qilgan bo‘lsalarda, diniy qarashlarda zardushtiylik etakchi o‘rinda turgan. Zardushtiylarning ulug‘ xudosi Axuramazda (Ormo‘z, Xurmo‘z) "samo va ernaing asoschisi" bo‘lib, uning sharafiga qurbonliklar keltirganlar. Bu din ayniksa, Xorazm, So‘g‘d va Choch viloyatlarida keng tarqalgan edi. Bu davrda Toxariston, Farg‘ona, Ettisuv va Sharqiy Turkiston shahar aholisi o‘rtasida buddaviylik dini keng tarqalgan edi. Balxdan, Termizdan, Kobadiyondan, Kuvadan ilk o‘rta asrlarga oid budda ibodatxonalari qoldiqlari ochib o‘rganilgan. Shuningdek, So‘g‘diylarning Ettisuvdagi ayrim erlarga borib o‘rnashishlari oqibatida zardushtiylik dini bilan Ettisuvga xos shomoniylilik dinlarining bir-biri bilan qo‘shilishi yuz beradi.

Turkiylarning dini haqida “Bey-shi” va “Suy-shi” Xitoy yilnomalarida qayd etiladi. Ularda turkiylarning diniy odatlari haqida quyidagi ma‘lumotlar bor: 1) Hoqon qarorgohiga Sharq tomondan kirilgan va bu bilan kun chiqish tarafga xurmat ma‘nosi ifodalangan hamda ayni paytda quyoshga sihinishni ham bildirgan. 2) Xar yili hoqon o‘z amaldorlari bilan g‘orga borib, ota-bobolari ruhiga qurbonlik keltirgan. 3) Har yilda 5 marta hoqon oy chiqishida yaqinlarini yig‘ib, daryo buyiga borgan va osmon ruhi (Tangri)ga qurbonlik keltirgan. Qabilalar uchun yagona asosiy xudo bo‘lib, unga doimiy ravishda qurbonlik keltirib turganlar. Ular ruh abadiyligi, narigi dunyo borligiga ishonganlar.

Turk hoqonligi davri O‘rta Osiyoda ko‘plab yirik shaharlar mavjud edi. Katta va kichik shaharlarda hunarmandchilik, me‘morchilik, rassomlik, haykaltaroshlik qabilalar rivojlanadi. Ularning ayrim namunalari o‘sha davrda bunyod etilgan kasr va saroylarni bezagan devoriy suratlar va ganchkor naqshlar, haykallar va haykalchalar, tangalarda zarb etilgan ramzlar sifatida bizning kunlarimizgacha saklanib kelgan. Ularda o‘sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar o‘z aksini topgan. Surxon vohasidagi Bolaliktepa, Zarafshon vodiysidagi Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg‘onadagi Quva xarobalaridan topilgan devoriy suratlar manzaralari shular jumlasidandir.

Bu davrda ulkan hududlarda yashagan turli xalqlarning til va yozuvlari bir-birlariga ta‘sir o‘tkazgan edi. Arab yozuviga qadar turk-runiy, uyg‘ur, moniy, so‘g‘d, braxma, kxaroshtiy, xorazmiy va suryoniy yozuvlari mavjud edi. So‘g‘d, Xorazm va Toxariston axolisining alohida-alohida yozuvlari bor edi. So‘g‘d va Xorazm yozuvlari oromiy yozuvi asosida paydo bo‘lgan bo‘lsa, bu yozuvlar asosida toxariston yozuvi paydo bo‘ladi. So‘g‘d yozuvlari keng hududlarga tarqilgan bo‘lib, bu jarayon So‘g‘diylarning yangi erlarni o‘zlashtirish faoliyati va savdogarlarning ipak yo‘lidagi sa‘yi-xarakatlari bilan bog‘liq edi. Shu bois bo‘lsa kerakki, So‘g‘d tilidagi yozma yodgorliklar O‘rta Osiyo, Qozog‘iston,

Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'uliston hududlaridan topib tekshirilgan. So'g'd yozuvi ish yuritishda, savdo va madaniy aloqalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi uyg'ur, mo'g'ul va manjurlar yozuvlari paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Bu davrda Xorazmda mahalliy yozuv keng tarqalgan va amalda bo'lgan. Tuproqqal'adan shoh arxivlarining topilishi bunga misol bo'la oladi. Boy bezaklar, sopol, metall idishlar, devoriy suratlar, kiyimlardagi tasvirlar bu erda tasviriyl san'atning rivojidan dalolat beradi.

Hoqonlikdagi shahar aholisi asosan hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanganlar. Dehqonchilikdagi taraqqiyot ko'lam va sifati o'zidan keyingi uch tarmoq - hunarmandchilik, qurilish, savdo-sotiq ravnaqi uchun katta turtki bo'lgan edi. Aynan shuning uchun ham bu vaqtda temirchilik, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, qurolsozlik, to'qimachilik, shishasozlik, chirmangarlik kabi hunarmandchilik tarmoqlari tobora rivoj topadi. Turklar sarrojlik, ruda kazib olish va undan qurol-yarog' yasashda ayniqsa mohir edilar. Turklar yasagan qurol-yarog' va zeb-ziynat buyumlari o'zining xilmaxilligi va pishiqligi bilan ajralib turgan.

Bu davrda konchilik ishlari ham ancha rivojlangan. Oltin, temir, kumush, mis, to'zning bir necha xili, qimmatbaho toshlar, turli ma'danlar -So'g'd, Shosh, Farg'ona, Qashg'ar, Tohariston kabi viloyatlardan kazib olinganligi manbalarda aniq ko'rsatilgan.

Hoqonlik davrida savdo-sotiq ishlariga alohida e'tibor berilganligi bois, Buyuk ipak yo'li samarali ishlashda davom etdi. O'rta Osiyo xalqlarining bu davrdagi asosiy hamkorlari Eron, Xitoy, Hindiston, Vizantiya edi. Bu mamlakatlarga to'qimachilik, ipakchilik mahsulotlari, qimmatbaho toshlar, ulardan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, dorivorlar, nasldor arg'umoqlar, bir necha xil to'z, bog'dorchilik mahsulotlari, qazilma boyliklar va hokazolar olib borilgan. Savdo-sotiqda ayniqsa, So'g'diy savdogarlarning mavqei kuchli bo'lgan. Shu o'rinda xitoylik muallifning quyidagi ma'lumoti diqqatga sazovordir: "(So'g'diy) erkaklar yigirma yoshga to'lishlari bilan qo'shni mamlakatlarga oshiqadilar va (savdo-sotiqda) qaerda (qo'laylik) va manfaat bo'lsa (albatta) u erga kadam ranjida etadilar".

Xullas, O'rta Osiyoning Turk hoqonligi tarkibida bo'lishi o'sha davr davlatchilik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Avvalo, Turk hoqonligi juda katta hududlardagi turkiy qabilalarning birlashuvi va jipslashuviga keng imkoniyatlar yaratib, O'rta Osiyodagi ayrim turkiy xalqlar shakllanishiga asos soldi. Yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, avval Turk hoqonligi, keyin esa G'arbiy turk hoqonligining kudratli va ko'chmanchilarga xos shiddatli harbiy tashkiloti, So'g'diylarning bevosita aralashuvi tufayli olib borgan diplomatik siyosati Xitoy, Vizantiya va Eronning O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar davri xalklari va elatlariga nisbatan olib borayotgan tajovo'zkorlik siyosati yo'liga mustahkam to'siq qo'ydi.

Bepoyon dasht va chul hududlarida, serhosil va sersuv vohalarda tashkil topgan ulkan davlat birlashmalari kattagina hududlardagi shaharlar, hunarmandchilik, madaniyat, savdo-sotiq va o‘zaro aloqalarning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Masalaning yana bir eng muhim tomoni shundaki, Turk hoqonligi mavjudligi davr – ko‘chmanchilar madaniyati insoniyat tsivilizatsiyasining o‘z yo‘nalishi va jihatlariga ega bo‘lgan o‘ziga xos va betakror tarmog‘i bo‘lib, o‘troq aholi madaniyati bilan aralashib, uyg‘unlashgan madaniyat paydo bo‘lishi davri bo‘ldi.

Foydanilgan adabiyotlar.

45. Qosimova, E. T., & Gulchehra, A. (2025). JADID MA’RIFATPARVARLARI: MILLIY MEROSI VA SIYOSIY QARASHLARNING UYG‘UNLIGI. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 46-53.

46. Abdulxay, G., & Abdullayev, A. (2025). O‘ZBEKISTON SSR DA MA’MURY BUYRUQBOZLIK TIZIMI O‘RNATILISHI VA MUSTAHKAMLANISHI. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 74-81.

47. Абдулхай, Г. ТУРКИСТОН МАТБУОТИДА ЯНГИ ДАВЛАТ ХУСУСИДАГИ МУНОЗАРАЛАР (1918-1924 ЙИЛЛАР). *INFOLIB: ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью с участием иностранного капитала "E-LINE PRESS"*, (1), 56-60.

48. Абдулхай, Г. У. (2020). ТУРКИСТОН АССР: ҚАНДАЙ ДАВЛАТ БЎЛИШИ КЕРАК ЭДИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 3(1).

49. Abdulxay, G. U., & Gadoyeva, K. (2025). XIX ASR IKKINCHI YARMI XX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING TURMUSHI VA MADANIYATI. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 40-45.

50. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 4(11).

51. Ma’rufov, S., & Abdullayev, A. (2024). O‘RTA OSIYODA MUSIQA SAN’ATINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).

52. RAXIMOVICH, N., MUTALLIB, I., & MA’RUFOV SHERZOD, K. O. G. (2022). HISTORICAL FACTORS THAT CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURE IN CENTRAL ASIA. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 160-165.

53. MA’RUFOV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O‘RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. *ACTA NUUZ*, 1(1.2. 1), 23-26.

54. Sherzod, M. (2025). The Social, Economic and Cultural Life of The Population of The Syrdarya Region in The Middle Ages. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 6(01), 4-7.

55. Сулаймонович, Қ. С. (2024). СИРДАРЁ ТАРИХИ ЯНГИ АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАЛҚИНИДА. *PEDAGOG*, 7(11), 68-72.

56. Sherzod, M. R. (2024). NEW VIEWS ON ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS LOCATED IN SIRDARYA REGION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 4(2), 1-6.

57. Ma'rufov, S., & Bekturodov, S. (2024). XONLIKLAR DAVRIDA MUSIQA ILMIGA ILMIGA QARATILGAN E'TIBOR. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).

58. Komil o'g, M. R. S., & Eshmurza o'g'li, Q. S. (2025). HISTORY OF COIN MILLING IN UZBEKISTAN: PERIODIC RESEARCH AND HISTORICAL-CULTURAL SIGNIFICANCE. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 620-623.

59. Sherzod, M. R. ANALYSIS OF NEW RESEARCHES CARRIED OUT IN MEDIEVAL ARCHEOLOGICAL MONUMENTS IN THE TERRITORY OF SYRDARYA REGION.

60. Сулаймонович, Қ. С. (2024). КУЮК-ТЕПА-ҚАДИМГИ ФАРҒОНА ТАРИХИНИ ДАВРЛАШТИРИШДАГИ МУҲИМ ЁДГОРЛИК. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(11), 60-66.

61. Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO'CHMANCHILIK FENOMENINING O'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).

62. Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO'LNI O'ZLASHTIRISH VA KO'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).

63. Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). СЛАВЯН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ ВА УНИНГ КЕЛАЖАГИ: ДАНИЛЕВСКИЙ БАШОРАТИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 82-90.

64. Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). ФРИДРИХ НИЦШЕ ВА МАДАНИЯТНИНГ ИРОДА АСОСИДАГИ ТАЛҚИНИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 91-98.

65. Alibekov, U., & Rayimjonov, I. (2024). TURKIY XALQLARNING KELIB CHIQISHI XIX ASR SHARQSHUNOSLARINING TALQINIDA. *Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal*, 2(1), 267-270.

66. Xoshimjon o'g'li, R. I. (2024). 8.4 MOVAROUNNAHRGA ISLOM DININING KIRIB KELISHI VA UYG'ONISH DAVRINING BOSHLANISHI. *Innovative technologies in construction Scientific Journal*, 8(1), 12-15.

67. Rayimjonov, I. X. O. G. L. (2022). ERSHI (MINGTEPA) HUDUDIDAGI TARIXIY-ARXEOLGIK YODGORLIKLARI XUSUSIDA. *Scientific progress*, 3(5), 193-197.

68. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.

69. Xoshimjon o'g'li, R. I., Isoqovich, A. A., & Ravshanovna, K. L. (2025, May). THE INNOVATIVE DIGITAL TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION. In *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY* (Vol. 1, No. 1, pp. 355-362).

70. Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO 'LNI O 'ZLASHTIRISH VA KO 'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).

71. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.

72. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 47-53.

73. Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO 'CHMANCHILIK FENOMENINING O 'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).

74. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 28-41.

75. Davron O'g'li, A. D. (2025). AFSHINLAR SULOLASINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 600-605.

76. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O 'ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO 'NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 90-101.

77. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O 'ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 11-27.

78. Davron O'g'li, A. D. (2025). ILK O 'RTA ASRLAR DAVRI YOZMA VA ARXEOLGIK MANBALARIDA USTRUSHONA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 606-612.

79. Davron o'g'li, A. D. (2025). O 'RTA OSIYO KO 'CHMANCHI CHORVADORLARI TARIXINING O 'RGANILISHI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(8), 100-113.

80. Davron O'g'li, A. D. (2025). ILK O 'RTA ASRLARDA USTRUSHONADAGI SIYOSIY HOLAT. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 613-619.

81. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 47-53.

82. BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.

83. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАХАД МУХАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.

84. Назаров, О., & Абдуматов, А. (2024). ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДАГИ ОЛТИН ДАВР. *Ilm-fan va ta'lim*, 3 (18).

85. Галиев, С., Абдуматов, А., & Неъматов, Р. (2025). ГЕРОИ-ТАТАРЫ УЗБЕКИСТАНА, УЧАСТВОВАВШИЕ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 35-39.

86. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.

87. Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO 'CHMANCHILIK FENOMENINING O 'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).

88. Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO 'LNI O 'ZLASHTIRISH VA KO 'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).